




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



14.	Dilbar HAYDAROVA, Qo'rqut ota hikoyalarida mifologik ayol obrazlarining tipologiyasi	474
15.	Dilorom HAYITBOYEVA, Ubaydiy ijodida folklor an'analari	477
16.	Madina ALIMOVA, O'zbek va ingliz tillarida frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili	480
17.	Shalolaxon IBODULLAYEVA, Xalq ertaklari va adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarning bola dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni	483
18.	Fayzulla ISKANDAROV, Na'tlarda komil inson talqini	485
19.	Nigora SARIMSOQOVA, O'zbek qahramonlik eposidagi jang sahnalari asosida talabalarda ilmiy-ommabop matn yaratish ko'nikmasini shakllantirishi metodikasi	489

6-SHO'BA. UMIDLI TADQIQOTCHILAR

1	Marvarid QURBONAZAROVA, Dialektal korpusda fonetik teglash: genezis	493
2	Marjona O'RALOVA, Dunyo lingvistikasida qishloq xo'jaligi dialektal birliklari bazasining tuzish tajribasi	496
3	Maftuna ABDULLAYEVA, Koson tuman shevalarida taomlarning nomlanishi (qarluq va qipchoq lahjalari) misolida	499
4	Dilzodaxon MADRAXIMOVA, O'zbek xalq ertaklarini xalqaro kataloglar asosida o'rganish tajribasi (Turk olimi Hüseyin Baydemir izlanishlari misolida)	502
5	Nigora SONDIBOYEVA, G'allaorol tumani nurobod qishlog'i shevasining lingvistik tahlili	505
6	Muxlisa JO'RAYEVA, Topishmoqlarning pragmasemantik tahlili	509
7	E'zoza MIZAMOVA "Ravshan" dostonida xalqona til: maqollar, iboralar, doimiy epitetlar	513
8	Ismigul MATKARIMOVA, Isajon Sulton hikoyalarida etnografik folklorizmlar	515
9	Malika TO'RAQULOVA, O'zbek xalq ertaklarida "Oq" va "Qora" ranglarning dualistik semantikasi	518
10	Shahnoza MAHMUDOVA, Xalq allalarida qo'llangan ba'zi dialektizmlar xususida	521
11	Mohina BOBOQULOVA, Zamonaviy o'zbek adabiyotida folklor janrlarining transformatsiyasi	527
12	Mohidil SHERXONOVA, Namangan vodiysi shevasining o'ziga xos leksikasi	529
13	Muslima AMINJONOVA, Namangan viloyati chust tumanidagi "sar sila" marosimi: an'anaviy udum va uning ramziy talqini	533
14	Dildora HUSANOVA,	536

NA'TLARDA KOMIL INSON TALQINI

THE INTERPRETATION OF THE PERFECT HUMAN IN NA'TS

Fayzulla ISKANDAROV,

ToshDO'TAU dotsent

mfayzullaiskandarov@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.2026/CIWJ3828

Annotation. *This article studies Navoi's philosophical, religious-Sufi views on understanding and studying the world. The poet's views on man and his purpose in life, the question of life, the world and its cause, the place of man in it, as well as perfection and the perfect man, expressed in an artistic way, are analyzed on the basis of concrete examples.*

Key words. *Na't, vasf, mi'raj, prophet, perfect man, perfection, letter.*

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir. O'zidan 6 ta masnaviy, 7 devon va bir qancha tarix, adabiyot, til va boshqa sohalarga oid ko'plab asarlar meros qoldirgan. Alisher Navoiyning ana shunday buyuk asarlaridan biri "Xamsa"dir. Ushbu asar Navoiy ijodining gulto'ji hisoblanadi. Shoir bu asarida juda ko'plab masalalarni yoritgan. Jumladan, "Xamsa"ning rejanomasi bo'lgan "Hayrat-ul abror" dostoni ham aynan shunday asarlar sirasiga kiradi. Ushbu dostonida ijodkor o'zining axloqiy-ta'limiy, falsafiy-tasavvufiy, adabiy-estetik qarashlarini bayon etgan. Ayniqsa, dostonning muqaddima qismida o'rin olgan an'anaviy boblar – hamdlar, munojotlar, na'tlar va zamonaning ulug' kishilariga bag'ishlangan boblarda ijodkorning komil inson, komillik va mukammal jamiyat haqidagi qarashlarini to'laqonli ko'rishimiz mumkin.

Navoiyshunoslik tarixiga nazar soladigan bo'lsak, XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab Navoiy ijodiy merosiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy maqolalar e'lon qilingan, tadqiqotlar amalga oshirilgan. Abdurauf Fitrat, Y.E.Bertels, O.Sharafiddinov, S.Ayniy, Oybek, M.Shayxzoda, H.Sulaymon, P.Shamsiyev, V.Zohidov, Izzat Sulton, V.Abdullayev, N.Mallayev, A.Qayumov, E.Rustamov, A.Rustamov, A.Hayitmetov va B.Valixojayevlarning ilmiy ishlari navoiyshunoslikning maxsus yo'nalish sifatida qaror topishida poydevor bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, A.Abdug'afurov, S.G'aniyeva, Y.Is'hoqov, R.Vohidov, M.Hakimov, E.Shodiyev, B.Akramov singari olimlarimiz shoir ijodini yanada chuqurroq o'rganishga, yangi-yangi qirralarini kashf etishga intildilar. Ammo Navoiyning diniy adabiyotga munosabati, diniy adabiyotlar, xususan "Qur'on" va hadislar shoir ijodining doimiy va muhim manbalari bo'lgani, o'z davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy masalalarini ulug' shoir ko'p vaqt shu asarlarga suyanib hal etganligi shu paytgacha deyarli o'rganilmadi. Navoiy "Nazmul-javohir" asaridagi ruboiylaridan birida "Qur'on", uni o'qishning foydasi haqida quyidagi hayajonli satrlarni bitgan edi:

"Qur'on"ki erur mujdai joni o'qumoq,
Yo'q, yo'qki, hayoti jovidoniy o'qumoq.
Bil ko'ngulga istasang shifoni o'qumoq,
Kim keldi ko'ngul shifosi oni o'qumoq [Navoiy, 2013:61].

Istiqloldan keyingi yillarda shoir ijodining zohiriy va botiniy ma'nolar uyg'unligida o'rganila boshlanishi, tasavvuf ta'limoti asosida ijodkorning tasavvufiy qarashlarining tadqiq etilishi N.Komilov, I.Haqqul, A.Abdugodirov, Dilorom Salohiy, S.Olim, Sh.Sirojiddinov,

K.Mullaxo‘jayeva va boshqa olimlar ilmiy ishlarida o‘z tasdig‘ini topdi. Bugungi kunda bu masala maxsus o‘rganilmoqda.

Alisher Navoiy o‘z dostonida Komillar komiliga bag‘ishlangan na’t boblarning birinchisi – “avvalg‘i na’t”da olamning yaratilishi haqidagi falsafiy qarashlarni bayon etadi. Barcha mavjudodlarning haqiqati va sababchisi bo‘lgan – Nuri Muhammadiy haqidagi misralar bilan na’t bob ochiladi.

Ey qilibon lam’ai nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, ne nur.
Nurunga tob ikki jahondin burun,
Harne yo‘q ondin burun, ondin burun.

“Nuri Muhammadiya” tushunchasi islom ulamolari ishlarida tez tez tilga olinadi. Ayniqsa, tasavvuf ta’limotida bu tushuncha yaxshi ishlangan. Tasavvuf ahli fikriga ko‘ra Tangri taolo olamlarni yaratishdan oldin Muhammad Nurini yaratgan bo‘lib, shu nur tufayli olamlarni va odamlarni xalq etdi. Bu nurni “Haqiqati Muhammadiya” ham deb yuritadilar”. (Muhiddinov 2005: 37). Navoiy dunyoning yaratilishi haqida falsafiy fikr yuritar ekan uning fikricha, Alloh Taolo barcha mavjudod – yer va osmon, oy va quyosh, yulduzlar, insoniyat, jonli va jonsiz barcha narsalarning yaratilishiga sabab Nuri Muhammadiydir. Chunki uning nuri yaratilganda ikki jahonda hech narsa na soya na nur bor edi. Borliq ham jamiki olam ham aynan shu ilohiy nur natijasi va ichidadir, ammo biz uni hech qachon sezmaymiz. Bu xuddi quyoshni zarra bilmaganidek. Ya’ni, dunyoda soya ham nur ham bo‘lmagan vaqtda Muhammad Nuri “zuhr qildi”, bu nur barcha qadimiylarning qadimiysidir. Bu fikr aynan olamlar asosida Muhammad s.a.v. nuri yotadi degan qarashga mos keladi. Ma’nolar ummoni Qur’oni Karimda ham aynan shunga doir bir necha oyatlar suralarda keltiriladi.

O‘z shaxsiy hayotida, islom ahkomlarida amali va e’tiqodi bilan “Nizomiddin” unvoniga sazovar bo‘lgan Navoiy uchun aynan shu - Kalomi sharif katta ma’naviy manba bo‘lib xizmat qilgan. Ijodkor ushbu bobda odamning yaratilishi va Odam Safiyulloh orqali ushbu nurni Havo onamizga undan bolalariga, sekin-astalik bilan ana shu tarzda ilohiy nurdan insonlarning barchasi bahramand bo‘lganligi ta’kidlanadi. Odamdan boshlangan nur Abdullohga (ya’ni, payg‘ambarimizning otasi) yetib kelgani va bob Komillar komilining dunyoga kelishi tasviri bilan yakunlanadi. Demak, Muhammad Nuri zamirida ilohiy qudrat va Haq jamoli aks etadi. Shuning uchun Payg‘ambar Allohning ko‘zgusi va Rasuli, unung qilgan ezgu ishlari esa, yaratganning amrini hayotga tatbiqidir.

Dostonning ikkinchi na’t bobida esa, Sarvari Koinotning bolalik yillari, dastlabki yashash tarzi, shuningdek, Payg‘ambarlik sifati berilguncha qilgan ishlari va faoliyati badiiy tasvirlanadi. Cho‘ponlik qilishi, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishi, bolaligining dastlabki paytlaridanoq Allohni inoyati bilan hammani o‘z zehni, aqli hushi, odob- ahloqi, husni xulqi va boshqa fazilatlar bilan ajablantiradi.

Surat aro tiftl, vale aqli kul,
Qavlung aro g‘ayri yali lam-yaqul.
Ahtaring ul tunki, tulu’ aylabon,
Charx salomig‘a ruku’ aylabon.

Payg‘ambarimiz butparastlarga qarshi jihad boshlab, Haq din Islomni yerda joriy qildi. Kufr tog‘iga shikast yetkazib yer yuzida iymon nurlarini taratdi. Bu ezgu ish o‘z navbatida yaxshilik bilan kutib olinmadi. Ba’zi makkaliklar ko‘nglida shubha gumonlar uyg‘otib g‘ulg‘ula soldi, kimlarningdir dillari yumshab iymonga kirdi. Ba’zi birovlar esa, Payg‘ambarga qarshi ashaddiy dushmanga aylandilar. Nima bo‘lganda ham, yovuzlik ustidan ezgulik g‘alaba qilganidek, Payg‘ambarning hidoyat yo‘li qaror topishi va Payg‘ambarlik sifatini berilishi bilan bob yakunlanadi. Uchinchi na’tda Payg‘ambarimizning payg‘ambarlik davrining dastlabki yillari badiiy tarzda yoritiladi. Makka mushrikklarining musulmonlarga yetkazgan aziyatlari keltiriladi.

Bu bilan ijodkor har bir qilinayotgan ishning oldida bo'ladigan to'siqlarni insonlar sabr matonat bilan yengib o'tishini, aynan islom dinining dastlabki targ'ibi jarayonida uchragan qiyinchiliklar misolida ko'rsatadi va bu ayni paytda, komillik yo'lga kirgan yoki komillik sari intilgan insonga bir o'rnak kabitdir.

Navoiy o'z fikrini davom ettirar ekan, xat-savodi yo'q, ummiy payg'ambarning Allohning inoyati ila olam sirlaridan voqif, ilohiy hikmat sohibi ekanliklarini ifodalagan. Mo'jizalar ko'rsatib, insonlarni kufr, botil-johiliyat yo'lidan – haq tomon hidoyatga boshlagani tasvirlanadi

Bo'lmadi gar xoma boshin yormog'ing,
Yordi qamar xomasini bormog'ing.
Qo'ymadi gar bu qalaming bir nuqat,
Lek milal nasxig'a ko'p chekti xat

Ya'ni, qalam ushlamagan xatni qoralamagan barmoqlari, bir ishorat bilan Oyni yordi. O'zi ummiy bo'lsa-da, ko'plab xalqlarni xatlariga chek qo'ydi. Qur'oni karim orqali barcha dinlarni botil qildi. Ko'plab butparastlar bundan minglab balolarga duchor bo'ldi. O'z navbatida uchinchi na't bobning mazmuniy-mantiqiy davomi bo'lib kelgan to'rtinchi na'tda ham Navoiy Payg'ambar s.a.v. ning payg'ambarlik va insoniy sifatleri madhini davom ettirib, Ul zoti munavvarning islom dinini joriy etish yo'lidagi qizg'in davrini qalamga oladi. Jumladan Qur'oni Karimning nozil bo'lishi uning hadisleri shular sirasiga qiradi.

Gohi takallum sanga mu'jiz kalom,
Nazmi kalomning bori mu'jiz nizom...
Sihhati hukm ichra hadising sahih,
Arzi fasohat kaloming fasih.

Ushbu bobda shuningdek yana bir sifatleri xushkalomliliqi ta'rif etiladi. Unga ko'ra payg'ambar nutqi orqali hammaga ta'sir eta oladigan, haqiqatlardan so'z ochib, olam sirlaridan odamlarni voqif etadi. Ularni din-u diyonatda, e'tiqodda, turmush tarzida, ilm-u amalda yanglishmasligi uchun barcha sohada Ul zotni o'zlari har tomonlama insonlarga o'z faoliyati va turmush tarzi bilan o'rnak namunasini ko'rsatdi. Rasululloh s.a.v yoshlik vaqtlaridanoq go'zal axloq va xulqqa ega bo'lib voyaga yetadilar. Ul zot Payg'ambar bo'lganlaridan so'ng Alloh taolo tomonidan eng go'zal husn-u xulq ul kishiga berilgan.

Qur'oni Karimning "Qalam" surasi 4 oyatida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga qarata shunday marhamat qilinadi: "Albatta, Siz buyuk xulq uzradirsiz!" (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2012: 564)

Shunga aynan muvofiq keladigan hadislerden birida ham shunday deyiladi: "Meni rabbim tarbiya qildi va tarbiyamni go'zal qildi" (Ibn Sam'oni rivoyati). Navoiy komil inson haqida gapirar ekan payg'ambarimizning halollik, mazlum va muhtoj kishilarga yordam qo'lini cho'zish, shuningdek, halimlik va barcha yaxshi sifatlar Ul zotda mavjud edi. Alloh taolo: "Sizlar uchun Alloh va oxirat kunidan umidvor bo'lgan hamda Allohni ko'p yod qilgan kishilar uchun Allohning Payg'ambarida go'zal namuna bordir", deb marhamat qiladi. Qur'oni karimning "Azhob" surasi 21 oyatida (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2012: 420).

Zoting edi javhari ulviy najod,
Tutmadi er soyasi birla savod.
Qayda savod etgali chekkay raqam,
Qoldi chu mahrum iliyindin qalam.

Garchi Ul zot xat-savodi bo'lmay, o'qish yozishni bilmagan bo'lsa-da, barcha sohada komil, barchaga ibrat na'munasini ko'rsatgan inson edi. "Tarixi Muhammadiy" asari va boshqa diniy kitoblarda keltirilishicha, so'nggi Payg'ambari ummiy bo'lishini Allohni o'zi xohlagani, bunda katta-katta ma'nolar borligi ta'kidlanadi. Bu go'yo Alloh yuborgan "Qur'on"ni Muhammad to'qib chiqargan degan ig'volardan shuningdek, unga bo'lgan ishonchsizlikdan saqlash uchun

bilib turib oldindan qilingan choradek tuyiladi. Alloh ko‘rguvchi va o‘zi bilguvchi, xatolardan holi Zotdir. Shak-shubhalarsiz, Rasulullohga ergashgan kishilar esa, baxt-saodatga, Alloh taoloning muhabbatiga sazovor bo‘ladi. Bu haqida Qur’oni karimda: “Ayting (ey Muhammad!): Agar Allohni sevsangiz, menga ergashingiz. Shunda Alloh sizlarni sevadi va gunohlaringizgi mahfirat etadi. Alloh kechiruvchi va rahmlidir”, deyilgan Oli Imron surasi 31 oyatida (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, 2012: 54). Quyi keltirilgan baytlarda ham yuqoridagi fikrlarni xulosasi sifatida bobning so‘ngida keltiriladi:

Ahliyu avlodiyo atboig‘a,
Oliyu ahfodiyo ash‘yoig‘a.
Tengri taolo karamidin qarin,
Yuz tuhafi “Rahmat ila yavmid-din”.

Ushbu bobda bir tomondan payg‘ambarimiz hayoti, payg‘ambarlik faoliyati bilan bog‘liq voqea-hodisalardan xabar topsak, ikkinchi tomondan, ul zotga bo‘lgan munosabat – cheksiz mehr-muhabbat, uning shafolatiga muyassar bo‘lish istagida yongan yurak evrilishlarining badiiy ifodasiga duch kelamiz. Bundan barcha insonlar Komillar komilining insoniy fazilatlaridan, komil husn-u xulqidan o‘rnak olmog‘i lozimligi, uning insonlar kamoloti yo‘lida qoldirgan ma’naviy meroslarini o‘qib o‘rganib komillik sari intilish lozimligi uqtiriladi. Rasulullohning s.a.v. hayotlari, u kishining sunnatlari biz mo‘min- musulmonlar uchun katta ibrat maktabidir. Komillikka intilgan inson hayoti davomida oqil va solih kishilarning fazilatli jihatlaridan o‘rnak olib yashaydi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy fikricha, dunyodagi barcha insonlar uchun o‘rnak bo‘lishga eng loyiq va haqli zot - Komillar komili, Sarvari koinot Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy (2006). Hayrat-ul abror. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
2. Fozilov E. (1983). Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. To‘rt jildlik. Ikkinchi jild. – Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Hojiahmedov A. (2008). Mumtoz badiiyat lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Muhiddinov M. (2005). Komil inson - adabiyot ideali. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 37 b.
5. Vohidov Rahim (1994). Navoiy va ilohiyat. – Byxopo: Navro‘z nashriyoti.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, (2012). Tafsiri hilol. – Toshkent: Hilol-nashr, – 54, 420, 564 b.